

DUNGAN XALQI VA UNING O'RTA OSIYOGA KIRIB KELISHI

Abdullayeva Zarnigor Xusanovna

O'zMU, Jahon tarix kafedrası mustaqil izlanuvchi doktoronti

abdullayevazarnigoru1430@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19657615>

Annotatsiya: Mazkur maqola Dungan xalqi va uning O'rta Osiyoga kirib kelish tarixi haqida bo'lib, unda asosan dungan xalqining kelib chiqishi va ularning O'rta Osiyoga ko'chib o'tish sabablari va ularning bu yerdagi joylashuvi yoritib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: loxuey, xuey, Xitoy, Ablat Xo'jayev, Axmad Zaki Validiy, Shensi, Andijon, Toshkent

Аннотация Эта статья посвящена дунганскому народу и истории его проникновения в Центральную Азию, в основном рассматривая происхождение дунганского народа, причины его миграции в Центральную Азию и его местоположение здесь.

Опорные слова и выражения: Лохуэй, Хуэй, Китай, Аблат Ходжаев, Ахмад Заки Валидий, Шэньси, Андижан, Ташкент

Abstract This article is about the Dungan people and the history of their entry into Central Asia, mainly focusing on the origin of the Dungan people, the reasons for their migration to Central Asia, and their location here.

Keywords and expressions: lohui, hui, China, Ablat Khojayev, Akhmad Zaki Validiy, Shaanxi, Andijan, Tashkent

Dunyo haqlari o'zining tarixi davomida turli davrlarda turfa sabablar bilan vaqtincha yoki butunlay, qisman yoki to'laligicha o'z Vatani tashlab ketishga va yangi hududlarga joylashib, begona jamiyatga moslashishga majbur bo'ldi. Buning natijasi sifatida esa, bugun turli ijtimoiy fanlar kesimida o'rganilayotgan diaspora tushunchasi paydo bo'ldi. Diasporalarning dunyo bo'ylab tarqalishi, uning jamiyatdagi o'rni, o'zaro munosabatlarning tobora murakkablashib borishi uni chuqur tadqiq va tahlil etishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab "o'z hududida istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, urf-odat va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", – deb o'z Konstitusiyasining 4-moddasida belgilab qo'ydi.

O'zbekistondagi diasporalar orasida tili va madaniyati, urf-odat va an'analari bo'yicha o'ziga xos bo'lgan dunganlar ham borki, ularning paydo bo'lishi, shakllanishi va tarqalishi borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar turli davrlarda zamon va makon nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Dunganlar va ularning tarixi bo'yicha Rossiya imperiyasi davriga tegishli manba va adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish mazkur xalqning o'tmishini to'g'ri anglashga xizmat qiladi.

Dunganlar xalqi o'zlarini loxuey, laoxueyxuey, xuey yoki chjunyuanjin (dvunyuanjin) deb atab, asosan, Qozog'iston, Qirg'iziston, qisman O'zbekiston hududida yashaydi. Ular dungan tili (Shimoliy Xitoyning shensi va gansu shevalari asosida shakllangan) da so'zlashadi. Dunganlar Xitoydagi xuey xalqi bilan etnogenetik jihatdan yaqindir. Ular 1953-yildan boshlab rus grafikasiga asoslangan yozuviga, gansu shevasi asosdagi adabiy tiliga ega va islom dinining hanafiylik mazhabiga e'tiqod qiladi. Dunganlarning kelib chiqishi fanda hali uzilkesil hal etilmagan bo'lib, bu borada tadqiqotchilar asosan, uchta guruhga bo'linadi. Birinchi guruh,

tadqiqotchilari ularni arablar va xitoyliklarning aralashuvidan kelib chiqqan deb hisoblasa, ikkinchi guruh olimlar esa ulami uyg'urlarning xitoy madaniyatini qabul qilgan, ichki Xitoyda yashaydigan qismi deb hisoblaydi. Tadqiqotchilarning uchinchi guruhi esa ularni VII-XV asrlar oralig'ida Shimoliy Xitoy ga kirib kelib, o'mashib qolgan arab, fors va Markaziy Osiyoning islom diniga e'tiqod qiluvchi turkiy qabilalarining avlodlari deb biladi. Dunganlar etnogenezi bilan shug'ullangan tadqiqotchilarning ko'pchiligi, shu jumladan, xitoyliklar ham uchinchi guruh fikrini qo'llab-quvvatlaydi. Taniqli xitoyshunos olim Ablat Xo'jaevning dunganlar etnogenezi bo'yicha fikrlari esa umuman boshqacha. Uning yozishicha, "Xitoyning asosan, dungan (xuey)lar yashaydigan provinsiyalarida qadimdan xitoy manbalarida "g'arbiy rivemlar (g'arbiy otliqar)" deb ataluvchi ilk turklar, ya'ni bugungi turkiy xalqarning avlodlari yashagan tiek-rivemlar (ilk turklar) o'z makonlarini tashlab, shimol va g'arbga ketishga majbur bo'ladi.

XIX asrda Xitoy shimoli-g'arbiy qismidagi xueylar dunganlar qo'zg'olonidan keyin Markaziy Osiyoga kelib qolishgan. O'zbekistonning xitoy musulmonlari 1926 yilda 132 nafar bo'lgan bo'lsa, 90-yillarga kelib, ularning soni o'n baravarga oshadi. Ular o'z ona tilidan tashqari o'zbek tilida ham mukammal gaplasha olishadi. "Dungan" so'zi esa turkcha "do'ngen", o'zbekchada "qaytgan" ma'nosini anglatadi. XX asr boshqird tarixchisi Ahmad Zaki Validiy XIII-XIV asrlarda yashagan Yuan xoni mo'g'ul Xubilayning saltanatida 150 ming musulmon askari xizmat qilganiga ishora qilgan. Yuan davlati parchalanganidan so'ng turkiy-mo'g'ul millatiga mansub ko'plab musulmonlar xitoy tili va madaniyatiga yuz tutganlar, degan taxminlar ham yo'q emas. "1862-1878 yillarda Xitoy shimoli-g'arbiy qismida xueylar, aniqrog'i dunganlar qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchraganidan 2 yil o'tib Andijonda xuey ko'chmanchilari paydo bo'ldi.

O'zbekistondagi dunganlarning asosiy qismi, Xitoyning Shensi provinsiyasidan kelgan muhojirlarning avlodlari bo'lib, ular 1930 yilda Toshkent viloyatiga ko'chib o'tgach, hududda "Lunmin", "Gunxo" va "Staxanovskiy sholichilik" nomli kolxozlari paydo bo'lgan. O'zbekiston dunganlari 1926 yilda 132 nafar bo'lgan bo'lsa, 90-yillarga kelib, ularning soni o'n baravarga oshadi. Hozirgi kunda dunganlar asosan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Andijon va Farg'ona vodiysining ayrim shaharlarida yashashadi. O'zbekistondagi xueylarning bugungi soni 2000 nafardan ham ko'pligi aytiladi va qo'shni davlatlardan kelin bo'lib kelganlarini hisobga olmaganda, hozirda hayot bo'lgan dunganlarning barchasi O'zbekistonda tug'ilib o'sishgan. Toshkent viloyati va Toshkentdagi dunganlar Qirg'iziston hamda Qozog'istondan kelgan elatdoshlari bilan ham oilaviy va nikoh aloqalarini saqlab turadilar. Hisob-kitoblarga ko'ra, qo'shni davlatlarda 50-60 mingdan ortiq dunganlar istiqomat qilishadi. Xitoyda esa ularning soni 12 milliondan oshadi. 1917 yilgacha O'zbekiston dunganlari orasida savodlilari bo'lmagan. 20 yil ichida, ya'ni 1937 yilga kelib ularning 45 foizi o'qish va yozishni bilgan. Keyinchalik ta'lim darajasi yanada oshgan. Hozirda esa O'zbekistondagi dungan diasporasi shifokorlar, agronomlar, olimlar, o'qituvchilardan iborat. Bundan tashqari, Xitoy investor va tadbirkorlarining O'zbekistonga kirib kelishi ortidan tarjimonlarga bo'lgan talabning qondirilishida ham ularning ulushi kattadir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda – Toshkent, Andijon va Farg'ona vodiysining boshqa shaharlarida ikki mingga yaqin dunganlar yashaydi. Eng zich dunganlar aholi punkti Dungan mahalla deb nomlanadi. U Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq tumanida joylashgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda dunganlar, xususan O'zbekiston dunganlarining oilaviy va maishiy turmushi, xo'jaligi, tili, dini, madaniyati, urf-odat va

an'anlaridagi o'zgarishlarni yuqorida keltirilgan tadqiqotlar va ulardagi ma'lumotlar bilan bugungi kunda qay darajada o'zgarganligini bilish uchun o'zaro qiyoslash imkoniyatini beradi. Ushbu qiyosiy o'rganish va undan olingan xulosalar asosida zamonaviy dunganlarning etnik yoki madaniy identikligidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Джебыр Мадживан. Дунганская энциклопедия. 2-е изд. / Гл. ред. М.Х. Имазов. Бишкек. Илим, 2009, – С. 114.8. Дунгане. История и культура. Российские дореволюционные работы о дунганах. Сост. М. Р. Мадиван, отв. ред. О. И. Завялова. Москва. На-ука – Восточная литература. 2017. – 335 с
2. Селицкий И. Кульджинские переселенцы пограничной с Китаем полосы. / Дунгане. История и культура. Российские дореволюционные работы о дунганах. Москва. Наука – Восточная литература. 2017. – С. 184 – 193.15.
3. Хорошхин П. Очерки Семиречья [фрагмент] Дунгане. История и культура. Российские дореволюционные работы о дунганах. Москва. Наука – Восточная литература. 2017. – С. 124 – 182
4. Yusupov, R. 2020. Responsive Piety: Chinese State Authority and the Politics of Islamic Ethics in a Hui Town. Hong Kong: Chinese University of Hong Kong.
5. <https://society.uz/news/detail/news1653>
6. [Dunganlar - Vikipediya](#)